

**ETYUD VA GAMMANING IJRO KO'NIKMALARINI
TAKOMILLASHTIRISHDAGI O'RNI**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" fakulteti "Xalq cholg'ulari" ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi

Diyora Abdunazarova

Ilmiy rahbar: Axadjon Mamadaliyev

O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasи dotsenti, Turon Fanlar

Akademiyasi faxriy professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijro ko'nikmalarini takomillashtirishda etyud va gammaning o'rni haqida so'z boradi. Bundan tashqari yana etyud va gammaning nima ekanligi ijrochiga qanday ta'sir ko'rsata olishi, uning foydalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ijro san'at, musiqa, gamma, etyud, madaniyat, sozanda, nota.

Etyud bu fransuzcha so'zdan olingen bo'lib aynan o'rganish, bajarish degan ma'nolarni bildiradi. Ikki xil manoda tushiniladi.

1) Tasviriy san'atda borliq (natura)dan uni o'rganish maqsadida yaratilgan asar. Ijodkor badiiy asar (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) yaratish jarayonida Etyuddan yordamchi manba sifatida foydalanadi. Tugallangan asarda Etyud majmuasi sifatida o'zini namoyon qiladi. Realistik tasviriy san'at asarlarini yaratish Etyuddan kartinaga o'tish jarayonida amalga oshadi. 19-asr o'rtalaridan Etyudga munosabat o'zgardi. Etyudni badiiy qiymatga ega bo'lgan asar darajasiga qo'tarish, ijodkorning g'oyaviy estetik qarashlarini ifodalashga intilish quchaydi. Yirik ijodkorlarning Etyudlari ko'pincha badiiy qiymatga va mustaqil ahamiyatga ega; 2) musiqada — cholg'u ijrochiligining muayyan texnik usulini qo'llashga asoslangan va sozandaning malakasini oshirishga mo'ljallangan pyesa. 19-asrda musiqa cholg'ulari takomillashuvi hamda virtuozi ijrochiligining

yuksalishi natijasida rivoj topdi (fortepiano uchun I.Kramer, M.Klementi, K.Cherni, skripka uchun R.Kreyser, P.Rode, violonchel uchun D.Popper E.lari va boshqalar). Musiqiy romantizm vakillari (N.Paganini, F.List, F.Shopen, A.Skryabin, S.Raxmaninov va boshqalar) ijodida E. yuksak badiiy konsert asari darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston kompozitorlaridan G.Mushel, B.Giyenko, Sayfi Jalil (fortepiano uchun), T.Qurbanov (organ uchun) va boshqalar E. yaratgan; 3) teatr pedagogikasida aktyorlik mahoratini rivojlantirish va mukammallashtirishga xizmat qiladigan mashq. O'qituvchi oldindan ishlab chiqqan yoki badiha yo'sinida yaratgan turli sahna harakatlaridan tashkil topadi.

Dastlab sozanda-talaba cholg'uni chalishdan oldin albatta turli gammalar, mashqlar va etyudlarga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu gamma va etyudlar chang cholg'usi uchun maxsus yozilgan bo'lib, ularda hozirgi zamon musiqa ijrochiligi yo'naliш va uslublari aks ettirilgan. Dasturda belgilanganidek birinchi kurs talabasi bitta majburiy etyud va bitta ixtiyoriy tanlangan etyudlarni o'rganib imtihonda topshirishi shart bo'ladi. Birinchi kurslar uchun ijro murakkabligi jihatidan deyarli bir xil bo'lgan uchta etyud majburiy berilgan bo'lib, talaba o'z ustoz bilan ulardan birini tanlab ijro etishi mumkin.

Har bir o'quv yili boshida ijro dasturidan o'rin olgan gamma va etyudlarni o'rganish talab etiladi. Gammalar o'quv dasturida har bir kurs uchun alohida ishlab chiqiladi. Shuningdek birinchi kurslar uchun ham maxsus gammalar ham ishlab chiqilgan bo'lib, ularni o'zlashtiribgina qolmasdan, balki sozandaning ijrochilik mahoratini oshirib boradi. Mashqlar biron bir maqsadda har xil ko'rinishdagi kichik yoki kattaroq musiqiy jumلالarni mashq qilish bo'lsa, gamma tovush qatori doimiy ravishda aniq pog'onalarini bosib u yoki bu shtrix asosida ijro etiladi. Gamma chalishning ijro mahoratini oshirishda asosiy ahamiyati shuki, bunda qo'llar belgilangan applikatura asosida, ya'ni majburiy xolda ijro etiladi. Aynan shu holat gammalarni mashqlardan ajratib turadi.

Mashqlarni dars jarayonida o'qituvchi bilan yoki bir necha talaba birgalikda chalishi yaxshi natija beradi. Mashqlar o'ng va chap qo'llarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

bo'lib, har biri alohida-alohida maqsadni ko'zda tutadi. Mashqlarga ya'ni etyud va gammaga misol qilib quyidagilarni ko'rsata olishimiz mumkin bo'ladi:

A-dur

T3 **S6₄**

D6₅ **T3**

Tabiiy

fis-moll

Garmonik

Melodik

D4₃ **t₃** **s6₄**

Gamma bu musiqada — dastlab o'rta asr Yevropa ilmida musiqa tovush katorining eng past tovushi. Keyinchalik muayyan lad tovushlarining oktava orasidagi tartibi. G. asosiy pog'onadan boshlanib yuqoriga yoki pastga yo'nalgan bo'ladi. 7 tovushli (diatonik ladlarda), 12 tovushli (xromatik), Sharqda 17,22 va hatto 48 tovushli Gammalar mavjud. Turli Gammalarni ijro etish — o'quv jarayonida keng tarqalgan musiqa mashqlaridan hisoblanadi. Ijrochining ijro mahoratini oshirishda gamma va etyudlarning o'rni muhim hisoblanadi. Etyud va gammalar ijrochining texnikasini o'rganish metodikasini o'sishida, ijro ko'nikmalarini takomillashishida har tomonlama foyda bo'lib keladi.

Foydalanylган адабиётлар

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Etyud>.

2. А.Мамадалиев. “Халқ чолғуларида ижрочилик” (чанг) дарслик.

Тошкент. 2022 йил.